

2026-yil – “Mahallani rivojlantirish
va jamiyatni yuksaltirish yili”



O'ZBEKISTON
DAVLAT SAN'AT
VA MADANIYAT
INSTITUTINING
MA'NAVİY-MA'RIFIY,
ILMIY,
IJTIMOIY GAZETASI

IJODIY PARVOZ

2026-yil iyun № 6 (145) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz



MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDAGI YANGI BOSQICH: IJODIY IMKONIYAT VA TASHABBUSLAR

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim ustunlaridan biri sanalgan madaniyat va san'at sohasiga alohida e'tibor qaratilayotgani bugun hech kimga sir emas. Mamlakatimizda milliy madaniyatni rivojlantirish, yosh avlodning estetik dunyoqarashini yuksaltirish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash hamda madaniyat va san'at ta'limi tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Joriy yilning 1-iyun kuni Prezidentimiz tomonidan madaniyat va san'at xodimlari bilan sohani yanada rivojlantirish bo'yicha kelgusidagi ustuvor vazir-falarga bag'ishlangan uchrashuv bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuvda ta'lim tizimini takomillashtirish, ijodkor ziyolilar va yoshlar hamkorligini mustahkamlash, talabalar startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish ana shu ezgu maqsadlarning amaliy ifodasiga aylandi.

Yig'ilishda ilgari surilgan tashabbuslar va vazir-falar nafaqat madaniyat ta'limi tizimi, balki butun ma'naviy hayotimiz uchun yangi istiqbollarni ochib bermoqda. Bu borada *“Davlatni iqtisod ko'taradi, qonun boshqaradi, armiya himoya qiladi. Lekin qaysi mamlakat adabiyot va madaniyatga e'tibor bersa, kelajagi mustahkam bo'ladi. Qaysi jamiyat ijod va san'atni qadrlasa, o'sha xalqning ma'naviy immuniteti kuchli bo'ladi. Bitta yax-*

shi asar, ta'sirchan qo'shiq millatning ruhini ko'taradi, birgina spektakl jamiyatning tafakkurini uyg'otadi, kinodagi bir obraz butun avlodning qarashini o'zgartiradi”, – dedi muhtaram Prezidentimiz.

Bo'lib o'tgan tarixiy uchrashuvda sohani rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar ilgari surildi. Jumladan, sohadagi iste'dodlarni yuzaga chiqarish va qo'llab-quvvatlash maqsadida teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg'u, tasviriy va amaliy san'at kabi 21 ta yo'nalish bo'yicha ijodiy birlashmalar tashkil etilishi rejalashtirildi. Birlashmalarga sohadagi yetuk ustozlar, vazirlar va kompaniya rahbarlari hamrais etishi belgilandi. Bularning barchasi sanab o'tilgan sohalarida zamonaviy va innovatsion o'zgarishlar bo'lishiga poydevordir.

Davomi 2-betda

”

Bizga milliy ruhni uyg'otadigan san'at kerak, xalqni ilhomlantiradigan adabiyot kerak, yoshlarga faxr va iftixor beradigan kino kerak, qalblarni junbishga keltiradigan musiqa kerak, odamning o'zini anglashga undaydigan teatr kerak.



Bugungi sonda:

KINO
VA
TOMOSHABIN



Kecha va
bugunning
QAHRAMONI



MUALLIFLIK
HUQUQI:
SSENARIYDAN
EKRANGA QADAR



Jinoyatchilikning
oldini olishda
madaniyatning
o'rni



MUQADDIMA

Namangan
gullar
shahri





MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDAGI YANGI BOSQICH: IJODIY IMKONIYAT VA TASHABBUSLAR

◀ Boshlanishi 1- betda

Bundan tashqari madaniyat va san'ati sohasidagi yosh ijodkorlar hamda ularning ustozlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning 1-sentyabr kundan boshlab Respublika tanlovlari g'oliblariga 100 million so'm, nufuzli xalqaro tanlov sovrindorlariga esa 300 million so'mgacha mukofot berilishi va ishtirok etish xarajatlari to'liq qoplanishi, ularning ustoz va murabbiylariga esa oylik maoshiga 100 foiz ustama to'lanishi belgilandi. Fikrimizcha, bunday imkoniyat va qo'llab-quvvatlash sohada faoliyat yuritayotgan ijodkorlarni yanada samaraliroq ishlashga, eng muhimi natija ko'rsatishga undaydi.

Yana bir muhim masalalardan biri, ya'ni madaniyat va san'at, adabiyot sohalarida yaratilayotgan har bir mahsulot ijodkorning intellektual mulki ekanligi, har bir asar, musiqa, qo'shiq mualliflarga daromad keltirishi, mualliflik huquqi to'liq himoya qilinmas ekan, ijod mahsulidan noqonuniy foydalanish hamda tarqatish holatlari bartaraf etilmasligini Prezidentimiz alohida ta'kidlab o'tdilar. Raqamli texnologiya va sun'iy intellekt sohalarida jadal rivojlanayotgan davrda har bir asarning raqamli izini yaratib, bu orqali ijodkorlar huquqini kafolatli himoya qilish mumkinligi, ushbu masala yuzasidan xorij tajribasini o'rganish va samarali tizim yaratish vazifasi berildi.

Bugungi kunda zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda teatr san'atining muhim o'rin egallashi, xalqimizni ruhiy olami va tafakkurini rivojlantirishda, yoshlarning ma'naviy immunitetini oshirishda teatrning ahamiyati naqadar muhim ekanligi uchrashuvda ko'p bora aytib o'tildi. Poytaxt teatrlaridagi holatlar o'rganilganligi, Milliy qo'g'irchoq teatri, Muqimiy nomidagi akademik teatr va yoshlar teatriga zamonaviy qiyofa olib kirish bo'yicha ishlar boshlangani shular jumlasidandir. Xususi teatrlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi sohada sog'lom ijodiy raqobat muhitini paydo qilishi, shu sababli 1-sentyabrdan xususi teatrlar va teatr-studiyalariga har yili 50 ta sahna asari yaratish xarajatlari davlat tomonidan qoplab berilishi, davlat madaniyat obyektlari bepul foydalanish uchun ajratilishi, xususi binoni ijaraga oladigan bo'lsa, oyiga 20 million so'mgacha xarajati byudjet hisobidan qoplab berilishi soha rivoji uchun katta yangilik bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Spektakl uchun sotilgan har bir chiptaga byudjetdan qo'shimcha 10 ming so'mdan, hududlarga chiqib qo'yilgan spektakllar uchun 20 ming so'mdan gonorar berilishi davlat va xususi teatrlar uchun yana bir motivatsion yangilik bo'ldi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, madaniy taraqqiyotning poydevori avvalo sifatli ta'lim va kuchli ijodiy maktabga tayanadi. Shu bois Prezidentimiz yig'ilishda madaniyat va san'at ta'limi tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko'rib chiqish zarurligini alohida ta'kidladi. Bu esa ta'lim muassasalarining faoliyatiga yangi yondashuvlarni joriy etish, o'quv dasturlarini xalqaro tajriba asosida boyitish va talabalarni amaliy ijodiy faoliyatga keng jalb etishni taqozo etadi.

Madaniyat va san'at ta'limining asosiy maqsadi faqat mutaxassis tayyorlash emas, balki ijodkor shaxsni

shakllantirishdan iboratdir. Ijodkorlik esa nazariya va amaliyot uyg'unligida kamol topadi. Shu nuqtayi nazaridan yig'ilishda Prezidentimiz tomonidan madaniyat va san'at yo'nalishidagi 10 ta oliygoh rektori har bir talaba bilan ishlab, ularning shaxsiy brendini yaratish, ijodiy mahsulotini sotish, hamkor topishga jiddiy e'tibor qaratishi kerakligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Yangi o'quv yilidan boshlab, har bir talabaga taniqli ijodkorlarni birlashtirish, dual ta'lim tizimini joriy etish ham soha rivoji uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda ham taniqli ijodkorlar va yosh iste'dodlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Chunki kitoblarda yozilmagan ko'plab sir-asrorlar, kasbiy mahorat va sahna madaniyati bevosita amaliy muloqot jarayonida avlodlardan avlodga o'tadi. Shu ma'noda ustoz san'atkorlarni oliy ta'lim muassasalari va ixtisoslashgan maktablar faoliyatiga kengroq jalb etish yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu esa milliy ijrochilik maktablari va ijodiy an'analarimizning uzviy davomiyligini ta'minlaydi.

”

Bugun dunyoda eng katta kurash inson ongi va qalbini egallash uchun ketayapti.

Mana shu kurashda kitob – qurol, teatr – tarbiya, kino – g'oya, musiqa – ruh, adabiyot – millat xotirasi, sahna esa xalqning oynasidir.



Yig'ilishda talabalar startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. Bugungi kunda zamonaviy iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri innovatsiyalar hisoblanadi. Avvallari startap tushunchasi asosan texnologiyalar va biznes bilan bog'liq deb qaralgan bo'lsa, bugun madaniyat va san'at sohasida ham innovatsion loyihalar tobora ko'payib bormoqda. Shularni inobatga olgan holda, talabalar startap loyihalarini uchun 10 ta oliygohga 50 milliard so'm berilishi ta'kidlab o'tildi, bu esa talabalarning ijodiy imkoniyatlarini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Bugun dunyo tajribasida madaniyat iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. "Kreativ iqtisodiyot" tushunchasi tobora keng ommalashib, san'at va madaniyatning iqtisodiy imkoniyatlari ham ortib bormoqda. Shu bois, yoshlarning innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash

KAMOLIDDIN UMAROV,
“San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrası katta o’qituvchisi,
san’atshunoslik fanlari bo’yicha
falsafa doktori (PhD)

orqali nafaqat yangi madaniy loyihalar yuzaga keladi, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyati ham mustahkamlanadi.

Yig'ilish davomida professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish masalasi ham muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi. Darhaqiqat, zamonaviy ta'lim sifati avvalo pedagogning bilim va tajribasiga bog'liq. Bugungi tezkor axborot asrida har bir o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlashi, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi va xalqaro tajribalarni o'rganib borishi zarur. Uchrashuvda bu masalaga alohida e'tibor qaratilib, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasidagi markazlar negizida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligida soha xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti tashkil etilishi belgilandi.

Bundan tashqari, madaniyat va san'at sohasi mutasaddilariga yangi o'quv yilidan har bir talabaga taniqli va tajribali ijodkorlarni birlashtirib, dual ta'limni yo'lga qo'yish topshirildi. Bunda ustoz ijodkorlar yoshlarni o'zining konsert, teatr va tomoshalarida ishtirok etishi uchun sharoit yaratib, ularni katta sahnada tayyorlab boradi. Bu esa talabalar uchun katta hayot maktabi bo'lib, o'z sohalarini yanada chuqurroq o'rganish va rivojlantirishda ularga katta yordam beradi.

Ushbu jarayonga jalb etilgan ustozlarga oliygoh professor-o'qituvchisiga teng miqdorda haq to'lanishi, taniqli ijodkorlar oliygohda dars beradigan bo'lsa, ularning oylik maoshiga 50 foiz ustama to'lanishi ta'kidlab o'tildi. Amaliy jarayonlarda faoliyat yuritayotgan ijodkorlarning ta'lim sohasida ishlashi, o'z bilim va tajribalarini talabalarga o'rgatishi samarali natijalarni yuzaga keltiradi.

Yangi o'quv yilidan boshlab ta'lim dasturlariga "Art-menejment", "Kreativ industriya", "Loyihalarni tijoratlashtirish" singari zamonaviy mavzular kiritilishi ham bejiz emas. Zero, bugungi zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda bu kabi mavzularning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Kinoindustriya, moda va dizayn, madaniyat menejmenti kabi yo'nalishlarga nufuzli xorijiy tashkilot va muassasalardan 50 nafar tajribali mutaxassis-o'qituvchi olib kelinadi. Ushbu zamonaviy sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda ishning olib borilishi ham soha rivoji uchun xizmat qiladi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarning yana bir muhim tomoni shundaki, ular ta'lim, ilm-fan va amaliy ijodiy faoliyatni yagona tizim sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Chunki zamonaviy taraqqiyot sharoitida bu uch yo'nalishni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Kuchli ilmiy izlanishlar yangi g'oyalarni yuzaga keltiradi, sifatli ta'lim malakali mutaxassislarni tayyorlaydi, amaliy ijod esa ana shu bilim va tajribaning hayotdagi natijasini namoyon etadi.

KINO VA

TOMOSHABIN

Bugungi kunda milliy kinematografiya rivoji haqida soʻz borganda, asosiy eʼtibor koʻpincha ssenaristlar, rejissyorlar yoki prodyuserlar faoliyatiga qaratiladi. Biroq kino jarayonining muhim ishtirokchilaridan biri boʻlgan tomoshabin omili koʻp hollarda eʼtibordan chetda qolmoqda. Holbuki, kino sanʼati taraqqiyoti nafaqat ijodkorlarning mahorati, balki uni qabul qiluvchi auditoriyaning didi va kino savodxonligi bilan ham bevosita bogʻliqdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur muammoni hal etish va kino sanʼati rivojini yangi bosqichga olib chiqish borasida 2026-yil 1-iyunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan sanʼat va madaniyat sohasi vakillari bilan oʻtkazilgan uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, taʼlim tizimida sanʼat yoʻnalishlarini kengaytirish, yosh isteʼdodlarni erta aniqlash va qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, milliy filmlarni xalqaro kino platformalari orqali dunyoga olib chiqish boʻyicha belgilangan chora-tadbirlar mamlakatimizda barcha sanʼat turlari qatorida kino sanʼatining rivojini jadallash tirish va uning sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarilishiga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda kino tomosha qilish jarayoni avvalgidan tubdan farq qiladi. Agar ilgari tomoshabin filmni koʻrib, oʻz taassurotlarini faqat yaqinlari bilan muhokama qilgan boʻlsa, hozirda u internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali oʻz fikrini minglab insonlarga yetkazish imkoniyatiga ega. Film haqidagi sharhlar, reytinglar va muhokamalar zamonaviy kino madaniyatining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Natijada tomoshabin nafaqat filmni qabul qiluvchi auditoriya, balki uning ommalashuvi, baholashishi va ijtimoiy taʼsirini shakllantiruvchi faol subyekt sifatida namoyon boʻlmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, tomoshabinning kino jarayonidagi oʻrni, uning filmni tahlil qilish madaniyati va bildirilgan fikrlarining kino rivojiga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi.

Raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida tomoshabin va kinoijodkor oʻrtasidagi masofa sezilarli darajada qisqardi. Endilikda kino ijodkorlari auditoriyaning munosabatini tezkor ravishda kuzatish imkoniyatiga ega boʻlmoqda. Bu esa kino mahsulotlarini yaratishda tomoshabin ehtiyojlari va estetik talablarini hisobga olishga xizmat qiladi.

Zamonaviy raqamli makonda reyting va sharhlar tomoshabinlarning film tanlashiga maʼlum darajada taʼsir koʻrsatuvchi omillardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Koʻplab tomoshabinlar filmni tomosha qilishdan oldin uning reytingi, mutaxassislar va oddiy foydalanuvchilar tomonidan yozilgan sharhlar bilan tanishishga moyillik bildirishadi. Bunday yondashuv tomoshabinga filmning mazmuni, mavzusi, janri hamda badiiy xususiyatlari haqida dastlabki ilmiy tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, sharhlar tomoshabinning filmni qabul qilish psixologiyasiga ham taʼsir koʻrsatadi. Film haqida oldindan oʻqilgan fikrlar tomoshabinni maʼlum emotsional holatga tayyorlaydi, uning filmga nisbatan kutishlarini shakllantiradi. Ayrim hollarda sharhlar tomoshabinga filmning murakkab gʻoyasi yoki ramziy maʼnolarini anglashga yordam beradi.

Xalqaro amaliyotda IMDb, Rotten Tomatoes, Letterboxd, Kinopoisk kabi sayt va platformalar tomoshabinlar hamda kino mutaxassislarining fikrlarini jamlab, filmlar haqidagi umumiy tasavvurini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur platformalardagi reyting va sharhlar koʻplab tomoshabinlarning film tanlash qaroriga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Film sharhidagi “yoqdi” yoki “yoqmadi” kabi sodda hissiy baholashni asosan “shunchaki” tomoshabin bildiradi. Dunyoqarashga ega intellektual tomoshabin oʻz munosabatini, film mazmuni va shaklini tahlil qilgan holatda oʻz xulosalarini beradi. Shu soha vakillari, mutaxassislar, kinoshunoslar ham amaliy, ilmiy jarayon bilan bevosita insonlar esa uni kinoshunoslik nuqtayi nazaridan kelib chiqib barcha jarayonlarni turli raketlarda tahlil qiladi.

Yuqori reyting va ijobiy sharhlarga ega boʻlgan filmlar odatda kengroq auditoriyani jalb qiladi. Aksincha, salbiy baholar filmning tijoriy natijalariga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Film tomosha qilgandan keyin ham sharhlar oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi. Koʻpincha tomoshabin asarda tushunmagan yoki eʼtibor bermagan jihatlarini boshqa tomoshabinlarning mulohazalari orqali qayta kashf etadi. Ayniqsa, murakkab dramaturgik tuzilishga ega boʻlgan, ochiq yakun bilan tugaydigan yoki falsafiy mazmundagi filmlar yuzasidan yozilgan sharhlar asarni chuqurroq ilmiy anglashga xizmat qiladi. Shu tariqa tomoshabinlar oʻrtasida oʻziga xos intellektual muloqot maydoni shakllanadi. Shu sababli, zamonaviy kino sanoatida tomoshabin fikri muhim ijtimoiy indikator sifatida qaralmoqda. Filmning badiiy va gʻoyaviy xususiyatlari haqidagi asoslantirilgan sharhlar nafaqat boshqa tomoshabinlarga yoʻl-yoʻriq beradi, balki kinoijodkorlar uchun ham muhim tahliliy manba vazifasini bajaradi. Biroq bunday muloqotning samaradorligi sharhlarining sifatiga bogʻliq. Agar sharhlar faqat hissiy baholar bilan cheklanib qolsa, ular tomoshabinga film haqida tasavvur bera olmaydi. Aksincha, asoslantirilgan va tahliliy fikrlar kino madaniyatining rivojlanishiga, tomoshabinlarning estetik didi va kino savodxonligining yuksalishiga xizmat qiladi.

Oʻzbek internet segmentida film haqidagi sharhlar madaniyati hali toʻliq shakllanmaganligi kuzatiladi. Koʻplab hollarda tomoshabinlarning fikrlari qisqa va hissiy munosabatlar bilan cheklanadi. Masalan, “film zoʻr”, “dahshat film”, “koʻrishga arzimaydi”, “vaqtim bekor

ketdi” kabi izohlarga duch kelamiz. Bunday fikrlar tomoshabinning umumiy munosabatini ifodalasa-da, filmning badiiy xususiyatlarini ochib bera olmaydi.

Mazkur holat bir necha omillar bilan izohlanishi mumkin: birinchidan, kino tanqidi anʼanalarining keng ommalashmaganligi tomoshabinlarning tahliliy fikrlashiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda; ikkinchidan, media va kino savodxonligi boʻyicha bilimlarning yetarli emasligi film haqida chuqur mulohaza yuritish imkoniyatini cheklaydi; uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda tezkor va qisqa kontentning ustunligi natijasida batafsil sharh yozish amaliyoti sust rivojlanmoqda.

Bunday vaziyat milliy kino madaniyatining rivojlanishiga ham taʼsir koʻrsatadi. Chunki tomoshabin tomonidan bildirilgan asoslantirilgan fikr va mulohazalar kino ijodkorlari uchun muhim tahliliy manba hisoblanadi. Sifatli tomoshabin fikri kino sanoatining rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, film sharhlari tomoshabinning estetik didi, kino savodxonligi va madaniy darajasini namoyon etuvchi muhim koʻrsatkichlardan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, oʻzbek tomoshabinlari orasida filmni tahliliy baholash madaniyatini rivojlantirish, kino tanqidi va media savodxonlikni ommalashtirish milliy kino madaniyatining taraqqiyotiga muhim hissa qoʻshadi.

Bugungi kunda milliy kinematografiya rivoji haqida soʻz borganda, asosiy eʼtibor koʻpincha ssenaristlar, rejissyorlar, yoki prodyuserlar faoliyatiga qaratiladi. Biroq kino jarayonining muhim ishtirokchilaridan biri boʻlgan tomoshabin omili koʻp hollarda eʼtibordan chetda qolmoqda. Holbuki, kino sanʼati taraqqiyoti nafaqat ijodkorlarning mahorati, balki uni qabul qiluvchi auditoriyaning estetik didi va kino savodxonligi bilan ham bevosita bogʻliqdir. Chunki talab va taklif oʻrtasidagi munosabat kino sanoatida ham amal qiladi. Tomoshabinlarning badiiy talabi va mezonlari qanchalik yuqori boʻlsa, kino mahsulotlarining sifati ham shunga mos ravishda shakllanib boradi.

Filmni ongli ravishda tahlil qila oladigan, uning gʻoyaviy va badiiy xususiyatlarini baholaydigan tomoshabin kinoijodkorlar uchun muhim buyurtmachiga aylanadi. Bunday auditoriya oddiy koʻngilochar mahsulot bilan qanoatlanmaydi, aksincha, mazmunan boy, badiiy jihatdan puxta va dolzarb mavzularni yorituvchi asarlarga ehtiyoj bildiradi. Natijada ijodkorlar ham tomoshabin talabiga mos ravishda oʻz ustida ishlashga,

Xulosa qilib aytganda, tomoshabin kino jarayonining passiv kuzatuvchisi emas, balki uning rivojiga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi hisoblanadi. Chunki yuqorida taʼkidlanganidek, kino sanʼati taraqqiyoti nafaqat ijodkorlarning mahorati, balki uni qabul qiluvchi auditoriyaning didi va kino savodxonligi bilan ham chambarchas bogʻliqdir. Shu maʼnoda, tomoshabinlarning talab va mezonlari yuksalib borgani sari, kinoijodkorlar ham yanada sifatli, mazmunan boy va badiiy jihatdan puxta asarlar yaratishga intiladi.

Shu bois, tomoshabinlik madaniyati, kino savodxonligi va tahliliy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish milliy kinematografiya taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida qaralishi lozim. Zero, Andrey Tarkovskiy taʼkidlaganidek: “Film tomoshabin bilan birgalikda yashaydi va rivojlanadi”. Mazkur yondashuv ham kino sanʼati faqat ijodkor emas, balki tomoshabin bilan uygʻunlikda toʻliq maʼnoga ega boʻlishini yana bir bor tasdiqlaydi.



LAZIZA AXMATALIYEVA,
“Tahririyat va nashriyot”
boʻlimi muharriri

yangi izlanishlar olib borishga va sifatli filmlar yaratishga intiladilar.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, Oʻzbekistonda tomoshabinlik madaniyati va kino savodxonligini rivojlantirish masalasi tizimli yondashuvni talab etadi. Bu borada yosh avlodning sanʼat va madaniyatga boʻlgan qiziqishini oshirish, taʼlim jarayonida media savodxonlik hamda kino madaniyati bilan bogʻliq mavzularga kengroq oʻrin berish muhim ahamiyat kasb etadi. Teatr, kino, musiqa va tasviriy sanʼatga oid bilimlarning mustahkamlanishi yoshlarning audiovizual asarlarni ongli ravishda qabul qilishi va tahliliy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda filmlar haqidagi professional tahliliy materiallar, tanqidiy sharhlar va ekspert fikrlarini keng targʻib etish tomoshabinlarning estetik qarashlarini boyitishga yordam beradi. Bunday yondashuv filmga nisbatan asoslantirilgan munosabat bildirish madaniyatining shakllanishiga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Kinoijodkorlar va auditoriya oʻrtasidagi muloqotni faollashtirish ham muhim yoʻnalishlardan biridir. Film namoyishlari doirasida muhokamalar, ochiq uchrashuvlar va ijodiy davra suhbatlarining tashkil etilishi tomoshabinlarning kino sanʼatiga qiziqishini kuchaytirib, ijodkorlar uchun ham samarali fikr-mulohaza maydonini yaratadi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda filmlar yuzasidan chuqurroq tahliliy fikrlar bildirish, sifatli sharhlar yozish va kino madaniyatini targʻib etishga qaratilgan turli loyihalarni qoʻllab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. Bunday tashabbuslar tomoshabinlarning estetik didini yuksaltirish, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish hamda jamiyatda sogʻlom kino muhitining shakllanishiga xizmat qiladi.

Kecha va Bugunning QAHRAMONI



NILUFAR DO'STOVA,
“Kutubxona-axborot faoliyati”
ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi

Inson dunyoga kelar ekan, yuz yil umr ko'rsada hech yashamagandek, ammo kimdir qisqa lekin shunday yashaydiki ming yillarga yetgulik ijod, vatanga muhabbat, insoniy ezgu tuyg'ular qoladi. Shunday zabardast shoirlarimizdan biri Muhammad Yusufdir. Shoirdan ummonlarga teng ijod, osmonlarga tutash ash'orlar, yuraklardan-yuraklarga, tillardan-tillarga ko'chuvchi avlodlar dilidan o'chmaydigan, quyosh taftidek issiq mehr taralib turadigan milliy ruh uyg'unlashgan barhayot asarlar qoldi. Muhammad Yusuf XX asrning oxiri XI asr boshlarida ijod qilgan eng iste'dodli o'zbek shoirlaridan biri edi.

Muhammad Yusuf she'riyat olamiga yashin tezligida kirib keldi. Uning sodalik bilan oddiy tilda bitilgan she'rlari xalq orasida sevimli bo'ldi. Shoir qator san'atkorlar orqali xalq ko'nglidan joy oldi. U sodda dil, tanti, beg'ubor xalqning ko'nglini topa oldi. So'zning badiiy imkoniyatidan mahorat bilan foydalanish, musiqiy ravonlik, tuyg'ular tiniqligi, samimiylik, ruhiyat manzaralarini lo'nda va yakdil ifodalay olish Muhammad Yusuf she'riy uslubining yetakchi xususiyatidir. U vatanni, onani, ishqni, hayotni, haqiqatni shunday kuyladiki, bu shunchaki so'zlar orqali sayqal berib yozilgan emas edi. Bu she'rlar qalbdan qog'ozga ko'chgan ishlar edi. U o'z ona tilida, xalqning sodda dilining oddiy so'zidan buyuk asar yaratadi.

Shu sabab u she'ri inson yodida tez qolar, o'z so'zidek tildan-tilga ko'char edi. Shu sabab Muhammad Yusuf kabi buyuk shoir qoldirgan, ma'naviy meros xalq qalbida abadiy yashayveradi. Zero, inson qalbi bir uyga o'xshaydi, uning qanchalik tor yoki kengligi, toza va beg'uborligi uning ko'zlarida, so'zlarida aks etadi. Qahramonimizning ko'ngil uyi shu qadar keng ediki, vatanga bo'lgan ulkan muhabbat adabiyotga bo'lgan mehr to'la-to'kisligicha sig'adi.

Mustaqillikning ilk yillaridayoq “Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston”,

deya kuylagan edi u. Zotan, Muhammad Yusuf ijodining har bir satrida haqiqat, soddalik, mehr va samimiyat bor.

**Qo'rqmang... Yangrar qo'shiq.
Tugamas o'yin.
Ko'rganlar sizdan ko'z
Uzolmaydilar.
Shoirlar buzolmas
Birovning to'yin,
Birovning uyini
Buzolmaydilar.**

Shoir sevgisi, mana shu she'rning o'zidayoq shoir ko'nglini naqadar beg'ubor ekanligini his qilamiz. Shoir nag'malar oliyanob, nag'malar shaffof ekanini, u hatto o'z baxti uchun ham birovni uyini buzib olmaslikni, o'z manfaatidan suyuqli insoni baxtini yuqori ko'rishi, g'amini anduhlarini faqat she'rga to'kib olishni ko'rsatib bergan. U ko'p yashamadi, lekin xalqining qalbida, avlodlar yuragida mangu qoldi.

Muhammad Yusuf ijodini yuqori baholab, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Prezidentimiz tomonidan berilgan e'tibor “Do'stlik ordeni” “O'zbekiston xalq shoiri” (1998), “Fidokorona xizmatlari uchun” (vafotidan so'ng). O'zbek adabiyotida xalq qalbidan chuqur joy olgan ijodkorlar kam emas. Ammo ular orasida Muhammad Yusuf alohida o'rin egallaydi. Uning she'rlari sodda, samimiy va yurakdan chiqqan-

ligi bilan ajralib turadi. Shoir nafaqat o'z davrining, balki bugungi kunning ham qahramoni sifatida e'zozlanadi. Muhammad Yusuf she'rlari xalq ruhini, milliy qadriyatlarni va insoniy tuyg'ularni aks ettiradi, ulug'laydi. U murakkab falsafiy iboralardan ko'ra, oddiy va tushunarli so'zlar orqali katta ma'nolar ila xalqiga murojaat qiladi. Shu sababli, uning ijodi har bir o'quvchiga yaqin.

Muhammad Yusuf Vatanga bo'lgan muhabbat, ona va oila qadri, sadoqat va mehr, oddiy insonlarning hayoti, milliylik kabi qadriyatlarni ijodi orqali keng targ'ib qilgan. U yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, insoniylik va mehr-oqibatni ulug'laydi, oddiylik va samimiyatni qadrlashni o'rgatadi. Shu jihatdan, uning asarlari bugungi yoshlar uchun ham tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bugun ham Muhammad Yusufning she'rlari maktab va universitetlarda o'qitiladi, qo'shiqlarga aylantirilib kuylanadi. Ayniqsa, yoshlar orasida uning she'rlari motivatsiya va ruhiy qo'llab-quvvatlash manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Muhammad Yusuf – xalq shoiri, qalb shoiri va eng muhimi, zamonlar osha yashaydigan ijodkordir. Uning ijodi vaqt o'tishi bilan qadsizlanmaydi, aksincha, yanada chuqurroq anglanadi. Shu bois, u nafaqat o'tgan kunlarning, balki bugunning ham haqiqiy qahramonidir.

BINAFSHA TO'YCHIYEVA,
“Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi
2-bosqich magistranti



Asrlar davomida shakllangan madaniy-an'anaviy qarashlar tahlili gullarning turli madaniyatlarda yangilanish, hayotiy tiklanish va go'zallikni ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo'lganligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda xalqaro miqyosdagi festivallar tabiatni asrab-avaylash hamda o'ziga xos milliy qadriyatlarni namoyish etishga xizmat qilmoqda. Yaponiyadagi “Xonami” – gullar tomoshasi qadimiy an'analardan biri bo'lib, bahorda yapon olchasi – sakura gullarini tomosha qilish va tabiatning o'tkinchi go'zalligidan zavqlanishni anglatadi. VIII asrdagi Nara davridagi ushbu urfodat bugungi kunda ham oila va do'stlar davrasida o'tkaziladigan ma'naviy qadriyatlardan biridir.

Niderlandiyadagi lolalar festivali (Keukenhof) XVIII asrda boshlangan gulchilik madaniyati, 1949-yildan buyon xalqaro Keukenhof parki kabi maskanlarda ulkan ko'rgazmalar tarzida o'tkazib kelinadi. Shuningdek, 42 kilometrga cho'ziladigan gulli paradlar Bloemencorso tomoshalari bahorning eng yorqin voqealaridan sanaladi.

Buyuk Britaniyadagi Chelsi gullar shousi Qirollik bog'dorchilik jamiyati tomonidan 1913-yildan buyon har yili may oyida o'tkaziladigan Chelsi shousi dunyodagi eng nufuzli gul va landshaft dizayni ko'rgazmalaridan biriga aylandi.

Kolumbiyadagi Gullar festivali (Feria de las Flores) 1957-yilda qishloq xo'jaligi va gulchilik madaniyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida Medellin shahrida tashkil etilgan. Festival mahalliy fermerlarning o'z beliga ulkan gul kompozitsiyalarini taqib (silleteros) yurish an'anasi bilan mashhur bo'lib, qullik tugaganligini anglatadi. Braziliya, Filippin, Tailand va Yevropaning qadimiy Italiya, Ispaniya hamda Belgiya kabi mamlakatlarida ham mahalliy urf-odatlariga boy bo'lgan o'ziga xos gullar festivallari mavjud.

Namangan xalqaro gullar festivali gulchilik san'atining eng yirik markazlaridan biridir. Namangan shahrida ilk bor 1961-yil avgust oyida gul ko'rgazmasi sifatida boshlanib, keyin esa har yili o'tkaziladigan rasmiy tantanaga aylangan bu bayram yillar davomida xalqaro maqomga ega bo'lib, keng ko'lamli festivalga



aylangan. Bugungi kunda may va iyun oylarida shaharda millionlab gullardan yasalgan noyob kompozitsiyalar va “gullar karvoni” namoyish etiladi. 2018-yilda u xalqaro darajaga ko'tarildi va hozirda Markaziy Osiyodagi eng yirik gullar bayrami sifatida tashkil etilmoqda. 65 yil davomida mazkur bayramni har yili rang-baranglik hamda yangi his-tuyg'u bilan namoyish etilmoqda. “Bir oyda eng ko'p gul ekish” nominatsiyasida jahon rekordi yangilandi. Xalqaro gullar festivali Ginnes rekordlari kitobiga kiritildi. Shuningdek, Ginnes rekordi bo'yicha hisob-kitobda, bir oy ichida 29,4 milliondan ortiq gul ekilgani ta'kidlanadi. Bu esa rekord uchun hisoblangan alohida davr ko'rsatkichi bo'lib, festival uchun umumiy ekilgan gullar sonidan farq qiladi. Bu shunchaki raqamlar emas. E'tirof etish joizki, har bir gul qo'l mehnati bilan ekilgan bo'lib, hech qanday mashina, texnika ishlamagan.

Ginnes rekordlari sertifikatini topshirilgan tadbir davomida viloyat hokimining ijobiy emotsional holati mazkur natijaning nafaqat muvaffaqiyat, balki butun viloyat aholisi uchun ahamiyatli ijtimoiy-ramziy yutuq ekanini ifodaladi. Ushbu voqea Namangan viloyatining xalqaro miqyosdagi tan olinishi va hudud imijining yanada mustahkamlanishiga xizmat qildi.

MUALLIFLIK HUQUQI:



SSENARIYDAN EKRANGA QADAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida joriy yilning 1-iyun kuni madaniyat, san'at va adabiyot xodimlari bilan uchrashuv o'tkazilib, sohalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan ustuvor va-zifalar belgilab berilgan edi. Mazkur topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida 9-iyun kuni Toshkent shahridagi "Renessans" kino uyida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga bag'ishlangan ochiq muloqot o'tkazildi. Prezident Administratsiyasi vakillari, Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Adliya vazirligi mas'ullari hamda ijodkorlar, san'at va madaniyat sohasi namoyandalari, huquqshunoslar, mutasaddi tashkilotlar mas'ullari ishtirok etdilar. Tadbirda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilishning amaldagi mexanizmlari, ijodkorlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, mualliflik haqini hisoblash va to'lash tizimini takomillashtirish, raqamli platformalarda mualliflik huquqlarini muhofaza qilish bilan bog'liq dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Shu munosabat bilan ushbu tadbirda ishtirok etgan yuridik fanlar doktori, professor Boboqul TOSHEV bilan suhbatimiz kino asarlariga oid mualliflik huquqi, ushbu yo'nalishda uchrayotgan muammolar atrofida kechdi.

– **Ustoz, xalqimiz kino san'atini yuksak qadrlashi sir emas. Ellik yillar avval yaratilgan kino asarlari bugun ham qayta-qayta tomosha qilinayotgani, film qahramonlarining tilidan yangragan iqtiboslar xalqimiz orasida mashhur iboralarga aylanib ketgani ham buni tasdiqlaydi. Ammo, so'nggi yillarda sohada ayrim muammolar ham ko'zga tashlanayotganini rad etolmaymiz. Mavzuning ko'lamini hisobga olib, suhbatimizni eng muhim nuqtadan boshlasak. Ssenariy muallifi kim va uning huquqlari qonunchilikda qanday himoya qilinadi? Prodyuser yoki studiya ssenariyni o'zlashtirsa, yangi talqinda suratga olib, namoyish etsa huquqbuzarlik hisoblanadimi?**

– O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunining 15-moddasiga ko'ra kinofilm, multfilm, videofilm, serial, xronikal film va boshqalar audiovizual asarlar, deb e'tirof etiladi. Xalqaro universal shartnomalarda ham shunday belgilangan. Mazkur moddaga ko'ra sahnalashtiruvchi rejissyor, ssenariy muallifi, muayyan audiovizual asar uchun maxsus yaratilgan matnli yoki matnsiz musiqa asari muallifi, sahnalashtiruvchi operator, sahnalashtiruvchi rassom audiovizual asarlar mualliflari (hammualliflari) hisoblanadi.

Nomi yoki ismi-sharifi tayyorlovchi sifatida asarning asl nusxasida yoxud nusxasida ko'rsatilgan yuridik yoki jismoniy shaxs, agar boshqacha hol isbotlangan bo'lsa, shu audiovizual asarni tayyorlovchi deb e'tirof etiladi. Audiovizual asar omma oldida ijro etilgan taqdirda, musiqa asari (matnli yoki matnsiz) muallifi o'z musiqa asarining omma oldida ijro etilganligi uchun haq olish huquqini saqlab qoladi.

Ssenariy muallifining barcha huquqlari qonunchilikda ham, xalqaro shartnomalarda ham aniq belgilangan. Ha, prodyuser yoki studiya ssenariyni o'zlashtirsa, yangi talqinda suratga olib, namoyish etsa huquqbuzarlik hisoblanadi. Yuqoridagi Qonunning 62-moddasida mualliflik huquqlarni buzish sanab ko'rsatilgan. Unga ko'ra, mualliflarning shaxsiy huquqlarini buzish, huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmasdan asarlar takrorlash, tarqatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish, Qonunda nazarda tutilgan hollarda haq to'lash to'g'risidagi talablarni buzish, asarlardan huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha olingan huquqlarni oshirib yuborgan holda foydalanish, huquq egalarning mulkiy

huquqlarini boshqacha tarzda buzish kabi harakatlar mualliflik huquqlarini buzish hisoblanadi.

– **Xorijiy prodakshn studiyalar bilan hamkorlikda yaratilgan filmlarda mualliflik huquqini himoya qilish ikki xil yurisdiksiya sabab muammo tug'dirmaydimi? Shunday nizo yuzaga kelganda qanday tartib amal qiladi?**

– Hamkorlikda yaratilgan filmlardan kelgusida foydalanish tomonlar o'rtasida tuziladigan shartnomalarda belgilab olinadi. Asardan foydalanish ruxsat berish tartibi, ya'ni vaqti va hududi o'zaro kelishib olinishi kerak. Bunday holda har ikki taraf o'zlarining davlatlari qonunchiligini ham yoki "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish haqida"gi Bern (1886 yil) konvensiyasi qoidalariga asosan belgilab olishlari ham mumkin. O'zbekiston 2005-yil 19-apreldan mazkur konvensiyaning a'zosi hisoblanadi. O'rtada nizo kelib chiqqanda kelishmovchiliklar shartnomaga ko'ra yoki mazkur konvensiya talablariga ko'ra hal etiladi.

– **So'nggi vaqtlarda sun'iy intellekt yordamida montaj, dublyaj va vizual effektlar yaratish usullaridan keng foydalanilmoqda. Agar, ssenarist ushbu usuldan foydalansa, asarga bo'lgan mualliflik huquqi to'liq saqlanadimi?**

– Sun'iy intellekt jonli mavjudot emas, u global tizim. Sun'iy intellektga topshiriq berish natijasida xalqaro global tizimda avaldan mavjud bo'lgan turli ko'rinishdagi axborotni qidirib, topshiriqqa ko'ra axborotlarni tanlab, tizimlashtirish natijasi yangi axborot, ya'ni ssenariy yaratilishi mumkin. Bu shaklda yaratilgan ssenariy mualliflik huquqining obyekti bo'lolmaydi, ya'ni u asl (original) asar sifatida e'tirof etilmaydi. Ssenariy yozish topshirig'ini bergan shaxs garchi ssenariyni qo'lga kiritgan bo'lsada, u muallif sifatida tan olinmaydi. Yaratilgan ssenariydan foydalanish biror-bir huquqiy oqibat tug'dirmaydi.

– **Keyingi paytlarda rejissyorlar ssenariyga juz'iy o'zgartirish kiritib, hammualliflik da'vo qilishi kuzatilyapti. Bunga qanday munosabatdasiz? Fikringizcha, bosh g'oya va syujet tizimini yaratgan ssenarist bilan uni qisman tahrir qilgan ikkinchi shaxs teng darajali hammuallif bo'lishi to'g'rimi?**

– Qonunchilikka ko'ra rejissyor ssenariy muallifining roziligisiz unga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish huquqiga ega emas. Garchi, rejissyor ssenariy muallifiga asar (ssenariy)ning boyitilishi bo'yicha o'zining fikr-mulohozalarini bergan bo'lsa ham asarga hammuallif sifatida kirishi mumkin emas.



– **Aytaylik, bir ssenariy asosida film yaratildi. Keyinchalik, rejissyor uning ikkinchi qismini boshqa muallifga buyurtma qilishi mumkinmi?**

– Asar yaratilganda sahnalashtiruvchi rejissyor muallif bilan barcha jihatlarini kelishib oladi va uni shartnoma orqali rasmiylashtiradi. Hali yaratilmagan asarning taqdirini oldindan belgilab bo'lmaydi. Yaratilgan bir nomdagi yoki g'oyadagi asarning keyingi qismini boshqa shaxslarga buyurtma berish axloq qoidalariga, umuman, qonunchilikka mos emas. Asar mualliflari bosh kuchini dastlabki yaratilgan asarga bag'ishlaydi. Asar jamiyat tomonidan yaxshi qabul qilinganidan so'ng, mualliflarni chetga surib qo'yib, shu asarning davomi sifatida boshqa asar ustida boshqa shaxslar bilan ishlash ma'naviyatga ham to'g'ri kelmaydi. Mana shunday noxush holatlarning kelib chiqmasligi uchun mualliflar asar yaratilgan vaqtda undan foydalanish to'g'risida shartnomada barcha jihatlarini rasmiylashtirib olishsa yaxshi bo'lardi.

– **Kino sohasida mualliflik madaniyatini shakllantirish uchun ta'lim, davlat siyosati va ijodiy uyushmalar qanday rol o'ynaydi?**

– Kino sohasida mualliflik huquqiga rioya qilish madaniyati juda muhim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnomaviy munosabatlarga rioya qilish lozim. Umuman olganda, qonunchilikda audiovizual asar yaratish va undan foydalanishga oid mualliflik shartnomasi haqida batafsil qoidalar belgilangan.

Ko'rsatilgan huquqlar audiovizual asarga bo'lgan mualliflik huquqi amal qiladigan muddat mobaynida amalda bo'ladi. Asarni audiovizual asar tarkibiga kiritishga o'z roziligini bergan huquq egasi, agar audiovizual asarni tayyorlovchi bilan tuzilgan mualliflik shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lsa, audiovizual asardan foydalanishni taqiqlashga yoki biron-bir tarzda cheklashga haqli emas.

Audiovizual asarga tarkibiy qism bo'lib kirgan, ham ilgari mavjud bo'lgan, ham uning ustida ishlash jarayonida yaratilgan asarlarning mualliflari, agar audiovizual asarni tayyorlovchi bilan tuzilgan mualliflik shartnomasida boshqacha qoida shartlashilgan bo'lsa, har biri o'z asariga nisbatan mualliflik huquqidan foydalanadi. Shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirishda vakolatli davlat organlari faol bo'lishi kerak.

– **Mamlakatimizda eng ommabop bo'lgan kino san'ati sohasidagi yana qanday jiddiy muammolar va ularning yechimlari haqida gapirishni istar edingiz?**

– Respublikamizda yaratilgan audiovizual asarlar va ularning mualliflari haqida yagona, ishonarli axborot bazasi yaratilishi kerak. Bu bazada yaratilgan asarlarning nomi, himoya qilish muddatlari, asarlardan foydalanuvchilar kabi turli axborotlar joy olishi kerak.

Internet tarmog'ida mualliflik huquqiga rioya qilishni dunyo miqyosida standartlashtirish, insoniyatning mualliflar va boshqa huquq egalariга hurmat ko'rsatishi, asarlarning daxlsizligini ta'minlash, ijodkorlarning asar yaratish ishtiyoqlarini yanada kengaytirish maqsadida har bir davlat internetda mualliflik huquqini himoya qiluvchi maxsus qonunni qabul qilishi kerak.

Mualliflar o'z haqini biror-bir to'siqsiz va o'z vaqtida olsa, kelgusida yangi asarlar ustida ishlay boshlaydilar. Mukammal asarlar yaratilishi uchun ijodkorlarga kafolatlar berilishi kerak.

– **Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat!**

Suhbatni "Ijodiy Parvoz" gazetasi uchun JDPU mustaqil tadqiqotchisi Orifjon ODILOV olib bordi



DILNOZA ADILOVA,
"San'at va madaniyat menejmenti"
mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

ONAJONIM

Umrin bo'yi gul terdimmi?
 Bir bora onam uchun,
 G'amgin chogda gul berdimmi?
 Bir bora onam uchun.

Bor yo'g'ingiz beroldingiz,
 Dunyoda biz bor uchun,
 Tinglang ona kuylay bugun,
 Bu olamda siz bor uchun.

Tunlar bedor parvonalar,
 Bo'ldiku bolam uchun,
 Diydorimga to'ydirdimmi?
 Parvonam onam uchun.

Topganlarim, quvonchlarim,
 Taqdirim borim bilan,
 Har ishimda, xamdami bo'lay,
 Mehribon onam bilan.

Onajonim mexribonim!
 Bir olam quvonchimsiz,
 Siz men uchun yurakdagi,
 Eng yaqin ishonchimsiz.



RUSTAM ABDIYEV,
O'ZDSMI mustaqil tadqiqotchisi

KECHIR MENI

Diydor qoldi qiyomatga,
 Yuragingdan o'chir meni,
 Uchrashmaymiz endi boshqa,
 Kechirolsang kechir meni.

Ko'zim to'lib ketmay yoshga,
 Boshim urib qolmay toshga,
 Bir o'limdir deb bir boshga,
 Kechirolsang kechir meni.

Izlaringda yurib toldim,
 Seni yaxshi ko'rib qoldim,
 Yig'lab, yig'lab to'yib oldim,
 Kechirolsang kechir meni.

Chopdim dunyo yumushim deb,
 Shudir mening turmushim deb,
 Erkalayman Kumushim deb,
 Kechirolsang kechir meni.

Orzularni aylab xazon,
 Rustam ishqin qilma arzon,
 Istaklarim qilib bayon,
 Kechirolsang kechir meni.



NOLIMAGIN

Yaxshiman deb, ey banda,
 Yomondan nolimagin,
 Hamma ayb odamlarda,
 Zamondan nolimagin.

Azoblansa ham joning,
 Toptalmasin hech shoning,
 Xato bo'lsa nishoning,
 Kamondan nolimagin.

Oyoqqa tur yiqilsang,
 Baxt kulmaydi, o'kinsang,
 Boshog bo'lmay to'kilsang,
 Somondan nolimagin.

Ishqdan kechib, xor qancha,
 Or sotganga, kor qancha?
 Burda nonga zor qancha,
 Taomdan nolimagin.

Nafs uchun, yelib shoshib,
 Qirg'oqdan ketma toshib,
 O'tolmay qolsang oshib,
 Dovondan nolimagin.

Haqdan ketma yuz burib,
 Shukur qil, ko'pni ko'rib,
 Yolg'on dunyoda turib,
 Yolg'ondan nolimagin.

Qilmasang gar vafoni,
 Tortgaydiansan jafoni,
 Zahar inson zaboni,
 Chayondan nolimagin.

Qalbing uyi, pok bo'lsa,
 Qadring baland tog' bo'lsa,
 Gar to'rt muchang sog' bo'lsa,
 Armondan nolimagin.

Men yaxshi deb, ey banda,
 Yomondan nolimagin,
 Barcha gunoh bizlarda,
 Zamondan nolimagin.



GULSANAM SHODIYEVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

MEN O'ZBEK

Ming shukurlar shunday ulug',
 Bobolarning dilbandiman.
 Yer yuzida millat ko'pdir,
 Men o'zbekning farzandiman.

O'zi yemay bolasiga,
 Og'zidagi oshin bergan.
 O'zi yirtiq-yamoq kiyib,
 Farzandim zo'r kiysin degan.

Saharlarni ulab shomga,
 Dalada ter to'kib yurgan.
 Dunyo ahlin hayron qilib,
 Tengsiz sirli bino qurgan.

Momolarim beshik quchib,
 Alla aytib tong ottirgan.
 Ovozida butun iqlim,
 Jahon ahlin dong qottirgan.

To'tiyo deb ko'zga surtay,
 Daholarning avlodiman,
 Hali qancha tug'ilman,
 Olimlarning ajdodiman.



ELYOR NAZAROV,
"Madaniyat va san'at
muassasalari faoliyatini
tashkil etish hamda
boshqarish" ta'lim yo'nalishi
(sirtqi) 5-bosqich talabasi

JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA

MADANIYATNING O'RNI

(xorijiy
tajribalar
asosida)

Jinoyatchilik azaldan butun dunyo miqyosida dolzarb muammolardan biri sifatida qoralanib kelingan. Jamiyat xavfsizligi va barqaror rivoji ko'p jihatdan jinoyatchilik darajasiga bog'liq. Odatda bu muammoni hal qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jazolash tizimi va qonunchilik asosiy vosita sifatida qaraladi. Biroq zamonaviy yondashuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyatchilikni faqat kuch ishlatish orqali emas, balki madaniy ta'sir etish orqali ham oldini olish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, madaniyatni "yumshoq kuch" sifatida talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik olim Jozef Nay ta'kidlaganidek: yumshoq kuch — boshqalarni majburlamasdan, balki jalb qilish orqali ta'sir o'tkazish qobiliyati bo'lib, undan o'rinli va odilona foydalana olish judayam muhim hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zero, huquqiy madaniyat jamiyat a'zolarining xulq-atvoriga bevosita ta'sir etib, jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyat va jinoyatchilik o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Madaniy daraja past bo'lgan jamiyatda jinoyatchilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi kuzatiladi. Aksincha, madaniyati rivojlangan jamiyatda jinoyat darajasi nisbatan past bo'lishi ko'p bora o'z isbotini topgan. Buning sababi shundaki, madaniyat insonda ichki nazoratni shakllantiradi. Agar qonun tashqi nazorat vositasi bo'lsa, madaniyat — ichki nazorat mexanizmidir. Sotsiolog Emile Durkheim ta'biri bilan aytganda, "jamiyatni faqat qonunlar emas, balki umumiy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar birlashtiradi". Demak, madaniyat jinoyatchilikka qarshi "ko'rinmas to'siq" vazifasini bajaradi. Ayni paytda madaniyat chin ma'noda jamiyatni to'liq ma'noda jinoyat botqog'idan qutqarish yo'llarini ko'rsatib beruvchi ko'zgu sifatida maydonga chiqadi. Madaniyat aynan shunday ta'sir mexanizmiga ega: u halollikni qadriyatga aylantiradi, zo'ravonlikni qoralaydi, jamiyatga moslashuvni kuchaytiradi. Shu sababli biz madaniyatni jinoyatchilikni oldini olishda eng samarali, lekin ko'rinmas vositalardagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini e'tirof etamiz.

Ayniqsa, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishda, madaniyat muhim profilaktik omil sifatida namoyon bo'lib, uning ta'sir mexanizmlarini tahlil qilish maqsadida quyidagi beshta asosiy yo'nalishlarni ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, axloqiy madaniyat — jamiyatda jinoyatchilikning oldini olishdagi eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Chunki inson avvalo ichki vijdoni, qadriyatlar va tarbiyasi orqali o'z xatti-harakatlarini nazorat qiladi. Masalan, bolalikdan "birovning haqqiga xiyonat qilmaslik", "o'g'rilik uyat", "kattaga hurmat, kichikka izzat" kabi qadriyatlar bilan ulg'aygan inson jinoyatni nafaqat qonunga zid, balki axloqan noto'g'ri deb ham qabul qiladi. Shu sababli u jazodan qo'rqqani uchun emas, ichki e'tiqodi sabab jinoyatdan tiyiladi. Abdulla Avloniyniing: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", degan fikri ham axloqiy tarbiyaning jamiyat uchun naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda ayrim yoshlar orasida zo'ravonlik, internetdagi haqoratli muloqot yoki firibgarlik holatlarining ko'payishi aynan axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi bilan bog'liq. Shunday ekan, insonlarning axloqiy normalarini muvozanatga keltirilmas ekan bu borada ijobiy o'zgarish bo'lishi ancha mushkul.

Ikkinchidan, bevosita jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyatiga borib taqaladi. Huquqiy madaniyat insonning qonunlarni bilishi, ularga hurmat bilan qarashi va fuqaro-

lik mas'uliyatini anglashini bildiradi. Huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan shaxs o'z harakatining oqibatini tushunadi va qonunni buzishning nafaqat jazo, balki ijtimoiy zarar keltirishini ham anglaydi. Masalan, yo'l harakati qoidalariga rioya qilish, korruptsiyaga qarshi munosabat, internetdagi firibgarlikdan saqlanish, boshqalarning huquqini hurmat qilish huquqiy madaniyatning kundalik hayotdagi ko'rinishlaridir. Ko'plab davlatlarda maktablarda "huquqiy savodxonlik" darslari o'tilishi ham jinoyatchilik profilaktikasining bir qismi hisoblanadi. Chunki yoshlar qonunni qanchalik yaxshi bilsa, noqonuniy harakatlarga shunchalik kamroq moyil bo'ladi.

Uchinchidan, jinoyatchilik darajasiga ta'sir etuvchi navbatdagi omil aksariyat hollarda oilaviy muhit bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Oila madaniyati inson tarbiyasining birinchi va eng muhim muhitidir. Bola ilk bor yaxshilik va yomonlikni oilada o'rganadi. Agar oilada mehr, hurmat va mas'uliyat muhiti mavjud bo'lsa, farzandda ham ijobiy xulq shakllanadi. Yoki aksincha, doimiy janjallar, zo'ravonlik, beparvolik, ota-onaning salbiy odatlari bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uni jinoyatchilikka moyil qilishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlarda voyaga yetmagan jinoyatchilarning muayyan qismi nosog'lom oilaviy muhitda ulg'aygani qayd etiladi. Ayniqsa, ota-ona nazoratining sustligi yoshlarning salbiy guruhlariga qo'shilib ketish xavfini oshiradi. Xalqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi" naqlida ham aynan shunday hayotiy haqiqat yashiringan.

To'rtinchidan, ta'lim tizimi ham bu borada muhim o'rin tutadi. Ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy institutdir. Maktab va oliy ta'lim muassasalari yoshlarning dunyoqarashi, madaniy saviyasi va fuqarolik pozitsiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Agar ta'lim jarayonida ma'naviy tarbiya, kitobxonlik, san'at, tanqidiy fikrlash, huquqiy bilim yetarli darajada shakllantirilsa, yoshlarning jinoyatchilikka moyilligi kamayadi. Masalan, sport, teatr, musiqa yoki kitobxonlik to'garaklariga qatnashgan yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazgani sabab salbiy muhitdan uzoqlashadi. Buyuk Britaniyada o'tkazilgan tadqiqotlarda san'at va madaniyat dasturlarida qatnashgan yoshlarning agressiv xulqi kamaygani va ijtimoiy moslashuvi yaxshilangani aniqlangan. AQShdagi ayrim art-terapiya dasturlarida esa xavf guruhidagi yoshlarning zo'ravonlikka moyilligi pasaygani kuzatilgan. Bu esa ta'lim va san'atning jinoyatchilikka qarshi muhim profilaktik vosita ekanini ko'rsatadi.

Beshinchidan, jinoyatchilik turlarining oshib borishida ommaviy madaniyatning ta'siri ham seziladi. Bugungi globallashuv davrida ommaviy madaniyat yoshlar ongiga eng kuchli ta'sir qiluvchi vositalardan biriga aylandi. Masalan, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi filmlar, noqonuniy hayotni "qahramonlik" sifatida ko'rsatuvchi kontentlar, internetdagi agressiv trendlar ayrim yoshlarning ongiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Biroq OAV ijobiy yo'naltirilsa, u katta tarbiyaviy kuchga ham

ega bo'ladi. Ma'rifiy ko'rsatuvlar, tarixiy filmlar, motivatsion dasturlar, ijtimoiy reklamalar yoshlarda vatanparvarlik, qonunga hurmat va ijobiy qadriyatlarni shakllantiradi. Shu sababli ommaviy madaniyatni nazorat qilish emas, balki uni sog'lom va ma'rifiy yo'nalishda rivojlantirish orqali ijobiy natijaga erishish mumkin.

Jinoyatchilik masalasida ayrim statistik ma'lumotlarga to'xtaladigan bo'lsak, dunyo miqyosida jinoyat sodir etuvchilarning katta qismini erkaklar tashkil qiladi. Xususan, BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (United Nations Office on Drugs and Crime) ma'lumotlariga ko'ra, qotillik sodir etganlarning qariyb 90 foizi erkaklardir, qurbonlarning ham asosiy qismi erkaklar hisoblanadi. Bu holat yosh erkaklar orasida agressiv xulq va zo'ravonlik madaniyatining kuchliligi bilan bog'lanadi. Shu sababli sport, teatr, musiqa va san'at orqali erkaklarda hissiy nazorat va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish muhimdir. 2025-yilda Buyuk Britaniyadagi Manchester universitetida o'tkazilgan tadqiqotlarda san'at va madaniyat dasturlarida qatnashgan yoshlarning jinoyatchilikka moyilligi pasaygani, ya'ni, pichoq olib yurish kamaygani, huquqbuzarlikka munosabat ijobiy tomonga o'zgarigani, ta'lim va ishga qiziqish oshgani aniqlangan.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, jinoyatchilik kambag'allik, ishsizlik va ijtimoiy tengsizlik bilan chambarchas bog'liq. BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tadqiqotlarida iqtisodiy tengsizlik jinoyatchilikning asosiy omillaridan biri sifatida qayd etilgan. Shu sababli kam ta'minlangan hududlarda yoshlarni san'at, sport va madaniy faoliyatga jalb qilish muhim profilaktik vosita hisoblanadi. AQSh hukumatining san'at va ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan mustaqil federal agentligi (National Endowment for the Arts) AQSh Adliya tizimi bilan hamkorlikda xavf guruhidagi yoshlar, voyaga yetmagan huquqbuzarlar va ruhiy travma olgan bolalar bilan bog'liq art-terapiya hamda san'at dasturlarini o'rgangan.

Tadqiqot Angliya va Uelsdagi majburiy ta'lim yoshining oshirilishi asosida olib borilgan bo'lib, olimlar maktabda uzoqroq qolgan yoshlar orasida jinoyatchilik darajasi pasayganini aniqlashgan. Ayniqsa, mukiy jinoyatlar, o'g'rilik, yoshlar jinoyatchiligi sezilarli darajada kamaygani qayd etilgan. Tadqiqotchilar bunga bir nechta sabablarni ko'rsatadi:

1. Ta'lim insonning ijtimoiy imkoniyatlarini oshiradi. Bilimli insonning ish topish imkoniyati yuqori, daromad manbai qonuniy, jamiyatdagi mavqei barqarorroq bo'ladi. Natijada jinoyat sodir etishga ehtiyoj kamayadi.

2. Ta'lim o'zini nazorat qilishni kuchaytiradi. Tadqiqotda ta'lim insonda intizom, sabr, mas'uliyat, uzoq muddatli fikrlash kabi sifatlarni shakllantirishi ta'kidlangan. Bu esa impulsiv va agressiv xatti-harakatlarni kamaytiradi.

3. Ta'lim yoshlarni salbiy muhitdan uzoqlashtiradi. Olimlar "dynamic incapacitation" tushunchasini qo'llaydi. Bu yoshlarning ko'proq vaqtini maktab va ta'lim muhitida o'tkazishi ularni jinoyatchilik muhitidan uzoqlashtiradi, degan xulosaga keladi. Ya'ni ta'lim faqat bilim emas, balki ijtimoiy nazorat va sog'lom muhit ham yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat jinoyatchilikni oldini olishda muhim ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. U insonning ichki dunyosini shakllantirib, vijdon, mas'uliyat va qonunga hurmat kabi qadriyatlarni rivojlantiradi. Shu sababli madaniyatni "yumshoq kuch" sifatida rivojlantirish jamiyat barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim omillardan biridir. Zamonaviy tadqiqotlar ham san'at, ta'lim va ma'naviy muhit jinoyatchilik darajasini kamaytirishga xizmat qilishini ko'rsatmoqda. Demak, jinoyatchilikka qarshi kurashda faqat jazolash emas, balki madaniy va ma'naviy yondashuvlarni kuchaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.



SHODIYA JALILOVA
"Madaniyatshunoslik"
mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Tadqiqot mualliflari quyidagi fikrni ilgari suradi: "Ta'limni rivojlantirish jinoyatchilikni kamaytirishda muhim siyosiy vosita bo'lishi mumkin". Bu fikr madaniyat va ta'limning "yumshoq kuch" sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Chunki insonni faqat jazo orqali emas, balki bilim, tarbiya va madaniy muhit orqali ham jinoyatdan uzoqlashtirish mumkin. Shu o'rinda Nyu-Yorkdagi "Cure Violence" dasturi jinoyatchilikka qarshi kurashda madaniyatning "yumshoq kuch" sifatidagi rolini yaqqol namoyon etganini keltirib o'tish o'rinlidir. Ushbu loyiha dastlab Chikago shahrida "Ceasefire" nomi bilan tashkil etilgan bo'lib, keyinchalik "Cure Violence" deb atalgan. Dastur zo'ravonlikni oddiy jinoyat emas, balki "ijtimoiy epidemiya" sifatida talqin qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilik ko'proq yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarda uchraydi; ta'lim, oila va sog'lom ma'naviy muhit jinoyatchilik xavfini kamaytiradi; san'at va madaniy dasturlar agressiyani pasaytirib, yoshlarning ijtimoiylashuvini kuchaytiradi; huquqiy madaniyatning rivojlanishi qonunga hurmatni oshiradi.

Xalqaro tajribalar, xususan, Buyuk Britaniya va AQShdagi tadqiqotlar madaniyat hamda san'at dasturlarining jinoyatchilik profilaktikasida samarali vosita ekanini ko'rsatgan. Jumladan, O'zbekistonda ham jinoyatchilikni oldini olishda madaniy yondashuvga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ma'naviyat va ma'rifat targ'iboti, yoshlar siyosati, mahalla tizimi orqali profilaktika ishlari yo'lga qo'yilgan. Bu tizimlar orqali jamiyatda ijobiy muhit yaratish va jinoyatchilikni kamaytirish maqsad qilinmoqda. Bunga qo'shimcha tarzda quyidagilarni ham taklif qilish mumkin:

- yoshlar uchun bepul madaniy va ijodiy to'garaklarni ko'paytirish;

- maktab va oliy ta'lim tizimida huquqiy hamda axloqiy madaniyatga oid mashg'ulotlarni kuchaytirish;

- mahalla va oilalarda ma'naviy muhitni mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni kengaytirish;

- internet va OAVda zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentni cheklash, ijobiy kontentni ko'paytirish;

- jinoyatchilikka moyil yoshlar bilan san'at-terapiya va madaniy loyihalar asosida ishlash;

- teatr, musiqa, kitobxonlik va sport tadbirlarini profilaktik vosita sifatida rivojlantirish.

MUQADDIMA

Ibn Xaldunning qalamiga mansub “Muqaddima” asari o'rta asr Islom olamining eng muhim ilmiy meroslaridan biri hisoblanadi. Bu asar tarix, jamiyatshunoslik, iqtisodiyot va siyosat nazariyalari bo'yicha fundamental bilimlar manbai bo'lib, Ibn Xaldun tarix ilmini nafaqat voqealarni qayd etish, balki ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilish orqali tushuntirishga alohida e'tibor qaratgan. “Muqaddima” tarixiy jarayonlarni tahlil qilishda yangi yondashuvni taqdim etgan.

Ibn Xaldun jamiyatlarning rivojlanishi va tanazzulini tushuntirishda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarni o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqadi. Uning nazariyalari g'arb ilm-fani uchun ham yangilik bo'lib, keyingi davrlarda ko'plab olimlar uchun ilhom manbai bo'lgan. Ibn Xaldun “Muqaddima”da tarix ilmining fazilatlarini alohida ta'kidlab, uni nafaqat o'tmishni o'rganish, balki kelajakni tushunish uchun ham muhim deb hisoblaydi.

Ushbu asar, ayniqsa, jamiyatlarning ichki tuzilishi va siyosiy tizimlari haqida chuqur tahlilni o'z ichiga oladi. “Muqaddima” – bu oddiy tarix kitobi emas. Unda jamiyat, davlatlarning rivojlanishi va inqirozi haqida chuqur fikrlar bayon qilingan. Ibn Xaldun bu asarda insoniyat tarixi va ijtimoiy qonuniyatlarni batafsil tushuntirib bergan.

“Muqaddima” – bu oddiy tarix kitobi emas. Unda jamiyat, davlatlarning rivojlanishi va inqirozi haqida chuqur fikrlar bayon qilingan. Ibn Xaldun ushbu asarda insoniyat tarixi va ijtimoiy qonuniyatlarni batafsil tushuntirib bergan.

Muqaddima arabcha so'z bo'lib, oldi


qism; kirish joyi, qismi; nutq, asarning boshlanmasi degan ma'nolarni anglatadi. Ibn Xaldun mazkur asarini 19 yoshida yozgan. Bu asar mutafakkirning birinchi asari bo'lib, muallifning xattotligi bilan ko'chirilgan nusxasi bugungi kungacha yetib kelgan. Ibn Xaldun bu asarida Faxriddin Roziy ijodini Nosiriddin Tusiyning bu boradagi fikr-mulohazalaridan qisqacha bayon qilib, yozgan.

Ibn Xaldun aslida asarning bu uch qismini Muqaddima deb atamagan. Vaqt o'tishi bilan asar Muqaddima nomi bilan mashhur bo'ldi. “Kitab al-Ibar”ning “muqaddima” nomi bilan mashhur bo'lgan qismi ikkinchi va uchinchi kitoblardan mavzu va mazmun jihatidan farq qilishi, shuning uchun bu qismning ko'pincha alohida nusxa ko'chirilishi, chop etilishi va tarjima qilinishi ko'zda tutilgan nomni mustahkam qilib qo'ygan. Muqaddima kirish so'z, dastlabki ma'lumot, bosh va muqaddima, mavzu, masala va bob ma'nolarini ham bildiradi. Muqaddimatu'l-Ulum (ilmlarni kiritish) iborasi ilmlarning asoslarini bildiradi. Bob deb nomlangan

asosiy bo'limga kirishdan oldin, musulmon mualliflar ushbu bo'limni tushunish uchun zarur bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni bir yoki bir nechta kirish so'zlarida (dastlabki bo'limda) beradilar.

V.Bartoldning ta'kidlashicha, Muqaddima katta binoning muhtasham fasadiga o'xshaydi. Ichkari va orqa tomoni oldingi kabi emas. Ibn Xaldunning tarix falsafasidan hayratini yashirmagan Z.V. To'g'on “Kitab al-Ibar”da hikoyachining tarix haqidagi mulohazalari juda ham boy ekanligini qayd etadi. Sati al-Husariy esa Ibn Xaldun “Kitab al-Ibar”ni yozishda tarix falsafasini ko'zdan uzoqda tutganini ta'kidlaydi va bunga misollar keltiradi.

Darhaqiqat, “Kitab al-Ibar”da vaqti-vaqti bilan asosli mulohazalar, to'g'ri tanqidlariga duch kelish mumkin. Muqaddima: Ibn Xaldun birinchi kitob deb atagan, lekin muqaddimasi (xutba) va muqaddimasi (Muqaddima) bilan doimo Muqaddima yoki Muqaddima-i Ibn Xaldun nomi bilan mashhur bo'lgan va unga munosib obro'-e'tibor qozongan asar eng qimmatli asar



XILOLA RAXMONOVA,
“Kutubxona-axborot
faoliyati” ta'lim yo'nalishi
(sirtqi) 5-bosqich talabasi

hisoblanadi. Islom tafakkuri tarixidagi eng original asarlaridan biridir.

Bunday asarning musulmon qalam egasi tomonidan yaratilganligi har bir musulmon uchun faxr va iftixor. Ibn Xaldun Misrga kelganidan so'ng “Muqaddima”sini qayta ko'rib chiqib, tartibga solib, unga yangi jumlar, yangi paragraflar va hatto yangi boblar qo'shdi. Shu nuqtayi nazardan, “Muqaddima”ning Tunisdagi nusxasi bilan Misrda tugallangan Zahiriy va Farziy nusxalari o'rtasida katta farq bor.



◀ Boshlanishi 4- betda

Namangan shahrida tashkil etilayotgan gulchilik va madaniy tadbirlar majmuasi hududning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. 50 kun davom etadigan mazkur bayramda 150 dan ortiq tadbirlar tashkil etildi. Xususan, modalar haftaligi, simfonik konsertlar, avtoparadlar hamda sport musobaqalari kabi tadbirlarning o'tkazilishi shahar infratuzilmasi va madaniy hayotining kompleks rivojlanganligini ko'rsatadi. Bunday ommaviy tadbirlar aholi va tashrif buyuruvchilarning estetik didini shakllantirish, madaniy integratsiyani kuchaytirish hamda turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Gullar festivali va keng ko'lamlı ko'kalamzorlashtirish ishlari shahar muhitining ekologik hamda psixologik jihatdan sog'lomlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlarda tabiiy manzaralar va gulzorlarning inson ruhiy holatiga ijobiy ta'siri, stress darajasini kamaytirishi hamda emotsional farovonlikni oshirishi qayd etilgan. Shu nuqtayi nazardan, yuqorida ta'kidlanganidek, gulning go'zalligi insonlarda ijobiy kayfiyat uyg'otib, salbiy hissiyotlarning yumshashiga xizmat qilishi mumkin. Zero, inson bir umr go'zallikka intilib yashaydi. Endilikda Namangan nafaqat O'zbekistonning, balki Markaziy Osiyoning eng chiroyli shaharlaridan biriga aylandi.

Ko'rgazma

HASAN ABDUNAZAROV

Tranzit: Toshkent – Andijon – Toshkent

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi hamda xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan Andijon viloyatining Bobur shahrida may oyida ilk san'at festivali bo'lib o'tdi. Festivalda Respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan professional rassomlarning asarlari namoyish etildi. Toshkent shahri va Toshkent viloyati ijodkorlari ham festivalda faol ishtirok etdilar.

“Eng yaxshi rassom”, “Eng yaxshi fotorassom”, “Eng yaxshi grafik”, “Eng yaxshi haykaltarosh” kabi nominatsiyalar bo'yicha birinchi, ikkinchi o'rinlarni egallashdi. Bo'lib o'tgan keng ko'lamlı mazkur festivaldan so'ng O'zbekiston badiiy akademiyasi va badiiy ko'rgazmalar direksiyasi aholi va turli kasb egalari, ijodkorlar, yoshlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, “Tranzit: Toshkent – Andijon – Toshkent” nomli vernisaj tashkil etildi. Badiiy akademianing markaziy ko'rgazmalar zalida tashkil etilgan ushbu ko'rgazma va tanlovda qatnashmagan hakamlar hay'ati a'zolari ham o'zlarining ijodiy ishlarini taqdim etgan.

Ko'rgazma tomoshabinlarda katta taassurot qoldirmoqda.



Lagandagi bo'yoqlar raqsi

O'zbekiston Badiiy akademiyasining Ikko Xirayama Xalqaro madaniyat karvon saroyining katta ko'rgazmalar zalida kulol Abdurahim G'ofurovning “Lagandagi bo'yoqlar raqsi” deb nomlangan shaxsiy ko'rgazmasi tashkil etildi. Mazkur ko'rgazmada kulolning 80 ga yaqin turli shakldagi laganlari o'rin olgan.

Kulol ustoz 1954-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. Ko'rgazmaning ochilishida tarqatilgan material va suhbatlarda ta'kidlanganidek kulol bolaligida maktabga borib o'qiy boshlagandan keyin ko'p vaqt o'tmay 10 yoshida shamollab, kasallik tufayli quloqlari butunlay eshitmay qolgan. O'qishni davom ettira olmagan.

Kulolning bolalik davridagi harakatchanligi, o'tanasining farzandiga e'tibor berishi, hayotni bilishga qiziqishi so'nmadi.

Abdurahim mehnat faoliyatini 1973-yilda M.Raximov nomidagi Toshkent badiiy keramika tajriba kombinatida rassomlikdan boshlagan. Bu orada u kulolchilik buyumlari uchun ko'plab o'ziga xos bezak nusxalarini chizgan. Ishlash bilan birga o'zining kulolchilik namunalari yaratgan. Hozirda 50 yillik mehnat faoliyati davomida o'z qo'li bilan yasalgan sopol laganlardan uy muzeyi tashkil qilgan.

Uy muzeyiga chet ellik sayyohlar ham kelishgan. Muzeyida turli shakldagi laganlar, xumlar va ko'zalar o'rin olgan. Ijodkor Abdurahim G'ofurov Toshkent metropolitenining “Alisher Navoiy”, “Tinchlik”, “O'zbekiston”, “Bodomzor”, “Islom sivilizatsiya markazi”ni bezash ishlarida ham faol ishtirok etgan.

Muassis: O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti  Bosh muharrir Baxtiyor YAKUBOV	Tahrir hay‘ati: Hamdam ISMOILOV, Oybek DAVLATOV, Doniyor MIRZO Muharrir: Dilnoza QURBONOVA Sahifalovchi: Abdug‘ani SODIQOV	Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och mavzesi, 127 A uy. Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.	O‘lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq. Gazeta 30.06.2026-yilda topshirildi.
			Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.
		www.dsmi.uz; nashriyot@dsmi.uz	Gazeta elektron ko‘rinishda havola etilmoqda